

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№5

2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

АДАПТИВНОЕ БИЗНЕС-ПЛАНИРОВАНИЕ КАК ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	10
Шарипов Конгратбай Авезимбетович, Исматуллаев Темур Равшан угли	
STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	18
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА.....	26
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	35
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH.....	41
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	48
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAkatNI BOSHqARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIqISH.....	53
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	62
Alimova Dilafro'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	68
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.....	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	74
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHqARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI.....	89
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH.....	101
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	106
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	



MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	117
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI	123
Turdikulova Moxira Maxmasharifovna	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI	127
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO‘Y BERISHI MUMKIN BO‘LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI	132
Dehqonov Oyatillo Mansurbek o‘g‘li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH...	143
Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg‘ashova Madina, Jo‘rayev Muhiddin	
JAHON MOLIYAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	147
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
KORXONALARDA “TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH” KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJIRIBASI	151
Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO‘LLARI.....	156
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH	161
Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna	
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O‘RNI	166
Irgashev Anvar Farxodovich	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	173
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР	178
Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	184
O‘tbosarov Abrorbek Adxamjon o‘g‘li	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	189
Xamidova Zarifa Urol qizi	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI	196
Ro‘zmetov Mansur	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	200
Shaydulova Marjona Alisher qizi	
KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIYAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	205
Rizoyev Farrux Hikmatilloevich	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	210
Turaboev Ibroxim Ismoil o‘g‘li	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG‘DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	215
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ	225
Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ	231
Тожалиев Шохрух Талип ўғли GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING	236
Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH	241
Azlarova Aziza Axrorovna AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI	248
Marufxanov Davron Hasanovich O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI	255
Isakjanova Saboxat Muhamedovna MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI	263
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI	268
Anvar Deberdiyev RAQAMLI XIZMATLARNING O'ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O'RNI	272
Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	278
Ruzibayeva Nargiza Hakimovna IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILiyATIGA YANGICHA YONDASHUV	283
Tadjiev Bexzod Umidjanovich OTMNI MOLIYAVIY TA'MINLASHNING INNOVATSION MOLIYAVIY MODELARI	290
Tuxliyev Bozor Karimovich TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	293
Abirova Nargizabonu TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	298
Ro'ziyeva Maftuna Yusufovna OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI	303
Sharipova Shahlo Istamovna METROLOGIYANING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	308
Maxmudov Dostonbek Soyibjon o'g'li SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	312
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna O'ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	317
Ibragimova Saodat, Mirhamidova Dilorom, Shagaipova Gulchehra	



OLIY TA'LIM BITIRUVCHILARI SONINING JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'IGA TA'SIRI VA INSON KAPITALI ORQALI IJTIMOYIY XARAJATLARNI BOSHQARISH.....	323
Primova Nigora Ikrom qizi	
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR	331
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ELEKTRON TIJORAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA MIJOZLAR QONIQLASH DARAJASI..	337
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	341
Xakimov Akbar Anvarovich	
FOTOELEKTRIK TIZIM SAMARADORLIGIGA HARORAT, SOYALANISH VA DEGRADATSIYA OMILLARINING TA'SIRI.....	344
Majidova Maxliyo A'zam qizi	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	354
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	
STUDY OF THE INFLUENCE OF MEMBRANE REACTOR ON METHANE CONVERSION WITH WATER VAPOR AND CARBON OXIDE (IV).....	362
Umida Shabarova, Sugdiyana Abdurasulova	
ESG MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: EVALUATION PRACTICES, KEY DETERMINANTS, AND STRATEGIC PRIORITIES.....	367
Sanemkhan Abdullaeva	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	375
Boymirzayev Doniyorbek Anvarjon o'g'li	
PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRADIGAN PLATFORMA ISHLAB CHIQLASH	379
Salomov Shokirjon, Boboyev Shavkat, Normamatov Xayriddin	
ПОВЫШЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОСТИ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА.....	386
Назаров Феруз, Назаров Фарход, Ахмедова Фазилат, Элмуродов Элгез, Янгибоев Асадбек	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	391
Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Rasulov Akmal Xurshid o'g'li	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	397
Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI	403
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	407
Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi	
XORAZM VILOYATINING IQTISODIY SALOHİYATI VA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TARKIBI HAMDA JORIY HOLATI	411
Karimova Shaxnoza O'ktamovna	
TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	418
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH	423
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
AKTIVLAR QADRSIZLANISHI XARAJATLARINING MOLIYAVIY VA SOLIQ HISOBOTLARIGA TA'SIRI.....	427
Jarimbetov Ajiniyaz Kurbanbaevich	



MUHANDISLIK GEOMETRIYASI VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM NATIJALARIGA TA'SIRI: AUDIO VA VIDEOTEKNOLOGIYALAR IXTISOSLIGI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	430
Utkirova Mamura Faxriddin qizi	
HUDUDIY TADBIRKORLIK TIZIMIDA INVESTITSION RESURSLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL VA EKONOMETRIK YONDASHUVLARI	436
Isakov Axmadali Esanbayevich	
MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA INVESTITSION RESURSLARNING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH	444
Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li	
XABAR ALMASHISHGA ASOSLANGAN MARKETINGDA ISTE'MOLCHILARNING SHAXSIY HAYOTINI KUTILMALARI.....	452
Raxmatova Sitora Shuxratjon qizi	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI OPTIMALLASHTIRISH VA SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SEKTORINI INSTITUTSIONAL ISLOH QILISHNING QIYOSIY TAHLILI.....	461
Sharapov Umidjon Shavkatovich	
ZAMONAVIY SERVIS KOMPANIYALAR TANNARXINI ANIQLASHNING DOLZARB YO'NALISHLARI	471
Berdiyeva Dilfuza Axatovna	
NAVOIY VILOYATINING TURISTIK OBYEKTLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI TAHLILI	477
Turayev Abduvoxid Kuldashevich	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	483
Alimova Dilafro'z Tohir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI	488
Suvonov Ibrohim Izbosarovich	
QORAKO'L TERI JINGALAKLARINING TAKRORLANMAS KO'RINISHI VA XUSUSIYATLARI.....	492
Hakimova Sh.Q., Azimov J.Sh., Farmonov F.F.	
YOSH TADBIRKORLARNING STARTAP LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	497
Koriev Orif Azizovich	
HUDUDLARDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	502
Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Karimov Chuxmor Abdirashidovich	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY HOLATI VA MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI.....	507
Alimov Baxodir Batirovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISHNING IQTISODIY TAHLILI	513
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINING ROLI	516
Xodjimatom Maksudbek Ubaydullayevich	
MINTAQA TURIZM INDUSTRIYASINING IQTISODIY RIVOJLANISHI VA BOSHQARUV FAOLIYATLARI TAHLILI	520
Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Ruziqulov Aziz Tuxtayevich	
TIJORAT BANKLARIDA FINTECH TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ORQALI MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNI TA'MINLASH: NAZARIY YONDASHUV VA ISTIQBOLLAR	526
Nazarova Shohista Tolmas qizi	
METALLARGA BOSIM OSTIDA ISHLOV BERISH JARAYONLARINI RAQAMLI MODELLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI	531
Xasanov Kamoliddin Akmal o'g'li, Abdullayev Fatxulla Sagdullayevich, Diyorov Salohiddin Farhod o'g'li, Jalolov Jafar Jamol o'g'li	



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL MABLAG'LARI HISOBINI MHHS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: USLUBIY VA AMALIY YONDASHUVLAR	537
Umurzakov Dilshodbek Xakimovich TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI YASHIRIN IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHGA UNDOVCHI OMILLAR.....	543
Bobojonov Azimjon Akmal o'g'li MINTAQANING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	548
Maxmudov Jasurbek Ergashevich BUXORO TARIXIY MARKAZIDAGI MUZEY OBYEKTINING SIG'IM TAHLILI: FAYZULLA XO'JAYEV UY-MUZEYI TAJRIBASIDA.....	553
Odilova Muattar Akram qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li MAMLAKATIMIZDA KICHİK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING USTUVORLIKLARI.....	560
Turdiyeva Muqaddas Umarovna МОДЕЛЬ ЦИФРОВОГО ОБЪЕКТА ДЛЯ АНАЛИЗА КОМПЛЕКСНЫХ ЦИФРОВЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ОБЪЕКТОВ.....	565
Гулямов Шухрат, Шамсутдинова Винера, Караханова Алсу, Зайниддинова Зебинисо TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING MOLIYAVIY МЕХАНИЗМЛАРИ	571
Yuldoshov Otabek Jovli o'g'li	



TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI

Yuldoshov Otabek Jovli o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishda aksiyadorlik kapitali, kredit risklari va xorijiy investorlar ishtirokining o'rnini tadqiq etilgan. Tadqiqotda oddiy va imtiyozli aksiyalarning investitsion jozibadorligini ta'minlash orqali emission daromadning regulyativ kapitaldagi salmog'ini barqarorlashtirish, garov predmeti bilan ta'minlangan kreditlar tarkibida bitta qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga ajratilgan kreditlar ulushini 20 foizdan oshirmaslik hamda bank aksiyalarining muayyan qismini xorijiy investorlarga sotish mexanizmlari asoslangan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, aksiyadorlik kapitali, emission daromad, oddiy aksiyalar, imtiyozli aksiyalar, kredit konsentratsiyasi, xorijiy investorlar, investitsion jozibadorlik.

Аннотация: В данной статье исследована роль акционерного капитала, кредитных рисков и участия иностранных инвесторов в повышении инвестиционной привлекательности коммерческих банков. В исследовании обоснованы механизмы обеспечения инвестиционной привлекательности обыкновенных и привилегированных акций посредством стабилизации доли эмиссионного дохода в структуре регулятивного капитала, ограничения доли кредитов, выданных одному заемщику или группе взаимосвязанных заемщиков в составе кредитов, обеспеченных залоговым имуществом, на уровне не более 20 процентов, а также продажи определенной части банковских акций иностранным инвесторам.

Ключевые слова: коммерческие банки, акционерный капитал, эмиссионный доход, обыкновенные акции, привилегированные акции, кредитная концентрация, иностранные инвесторы, инвестиционная привлекательность.

Abstract: This article examines the role of shareholder capital, credit risks, and foreign investor participation in increasing the investment attractiveness of commercial banks. The study substantiates mechanisms for stabilizing the share of issue premium in regulatory capital by increasing the investment attractiveness of common and preferred shares, limiting the share of loans issued to a single borrower or a group of related borrowers secured by collateral to no more than 20 percent, and selling a certain share of bank stocks to foreign investors.

Keywords: commercial banks, shareholder capital, issue premium, common shares, preferred shares, credit concentration, foreign investors, investment attractiveness.

KIRISH

Tijorat banklarining investitsion jozibadorligi ularning kapital bazasi barqarorligi, aksiyalarning bozordagi likvidligi, kredit portfeli sifati hamda xorijiy investorlar uchun ochiqlik darajasi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonlari bank tizimida axborot shaffofligini kuchaytirib, investorlar uchun moliyaviy ko'rsatkichlarni tezkor baholash imkoniyatini yaratmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar asosida banklarning moliyaviy hisobotlari, aksiyadorlik kapitali tarkibi, risk darajasi, likvidlilik ko'rsatkichlari va korporativ boshqaruv sifati bo'yicha ma'lumotlar real vaqt rejimida monitoring qilinmoqda. Bu esa investorlarning qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirib, banklarning investitsion reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bank aksiyalarining investitsion jozibadorligini oshirish aksiyadorlik kapitali hajmini kengaytirish va emission daromadni ko'paytirish orqali regulyativ kapitalning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, oddiy va imtiyozli aksiyalar bozorining rivojlanishi banklarga uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini beradi. Oddiy aksiyalar investorlar uchun dividend olish va boshqaruvda ishtirok etish huquqini ta'minlash, imtiyozli aksiyalar barqaror daromad manbai sifatida investitsion xavflarni kamaytiradi. Natijada banklarning bozor kapitalizatsiyasi oshib, xalqaro moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligi kuchayadi.

Shu bilan birga, kredit portfelining yuqori darajada konsentratsiyalashuvi bank kapitali barqarorligi uchun muhim xavf omillaridan biri hisoblanadi. Kreditlarning bitta qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhida haddan tashqari jamlanib qolishi kredit riskining ortishiga, muammoli kreditlar ulushining ko'payishiga hamda bank likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli kredit konsentratsiyasi riskini cheklash bo'yicha prudensial me'yorlarni, xususan, bir qarzdorga to'g'ri keladigan maksimal kredit hajmini kapitalning 20 foizidan

oshirmaslik tamoyilini qo'llash bank tizimi barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv kredit portfelini diversifikatsiyalash, risklarni taqsimlash hamda banklarning moliyaviy xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi.

Xorijiy investorlar ishtirokining kengayishi ham tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshiruvchi strategik omillardan biri hisoblanadi. Xorijiy kapital ishtiroki banklarga qo'shimcha moliyaviy resurslar, zamonaviy bank texnologiyalari va xalqaro boshqaruv tajribalarini jalb qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, xorijiy investorlar ishtirokidagi banklarda korporativ boshqaruv sifati, moliyaviy intizom va axborot shaffofligi yuqori darajada shakllanadi. Bu esa xalqaro reyting agentliklari baholarining yaxshilanishiga, investorlar ishonchining ortishiga hamda banklarning xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarining kengayishiga olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda banklarning investitsion jozibadorligi aksiyadorlik kapitali, korporativ boshqaruv, risklarni boshqarish va investorlar huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq holda tadqiq etilgan.

P. Rose va S. Hudgins bank kapitalini boshqarish, aksiyalar emissiyasi va qimmatli qog'ozlar bozori orqali resurs jalb qilish banklarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashini ta'kidlaydi [1]. A. Saunders va M. Cornett bank faoliyatida kredit konsentratsiyasi riskini boshqarish kapital yetarliligi va moliyaviy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [2].

E. Altman kredit riskini baholashda moliyaviy koeffitsiyentlar va qarzdorlarning to'lov qobiliyati tahlili muhimligini asoslab bergan [3]. R. Levine moliyaviy institutlarning investitsion jarayonlarda vositachilik rolini o'rganib, banklar kapital bozorining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatgan [4].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh. Abdullayeva bank kapitali, kreditlash amaliyoti va moliyaviy barqarorlikni tijorat banklari faoliyatining muhim yo'nalishlari sifatida baholaydi [5]. A. O'lmasov va A. Vahobov moliya bozori hamda bank sektorining investitsion jarayonlarga ta'sirini tahlil qilgan [6]. T. Malikov va N. Haydarov moliyaviy barqarorlik va investitsion resurslar o'rtasidagi bog'liqlikni yoritgan [7].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik kapitalining jozibadorligi, kredit risklarining diversifikatsiyasi va xorijiy investorlar ishtiroki tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili, taqqoslash, risklarni baholash, mantiqiy umumlashtirish hamda grafik modellashtirish usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Ushbu yondashuvlar tadqiqot obyekti bo'yicha chuqur va har tomonlama tahlil olib borish, o'zaro bog'liqliklarni aniqlash hamda natijalarni ishonchli tarzda asoslash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Tijorat banklarining aksiyalari investitsion jozibador moliyaviy instrumentga aylanganda, bank kapitalini ichki va tashqi investorlar hisobidan mustahkamlash imkoniyati kengayadi. Oddiy aksiyalar bank boshqaruvida ishtirok etish va dividend olish huquqini bersa, imtiyozli aksiyalar nisbatan barqaror dividend daromadi olish imkonini beradi.

Tijorat banklarining oddiy va imtiyozli aksiyalarining investitsion jozibadorligini ta'minlash orqali emission daromadning reguliyativ kapital hajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash yo'li bilan tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish lozim hisoblanadi.

Emission daromad aksiyalar nominal qiymatidan yuqori narxda joylashtirilganda shakllanadi. Bank aksiyalarining bozordagi jozibadorligi oshgan sari investorlar ularni yuqori narxda sotib olishga tayyor bo'ladi. Bu esa bankning reguliyativ kapitalini mustahkamlovchi qo'shimcha manba sifatida namoyon bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Oddiy va imtiyozli aksiyalar jozibadorligini oshirish mexanizmi¹

Omil	Oddiy aksiyalarga ta'siri	Imtiyozli aksiyalarga ta'siri	Emission daromadga ta'siri
Dividend siyosati	Investorlar uchun foyda kutishini shakllantiradi	Barqaror dividend kafolatini kuchaytiradi	Aksiyalar yuqori narxda joylashtiriladi
Korporativ boshqaruv	Boshqaruvda ishtirok etuvchi investorlarni jalb qiladi	Institutsional investorlar ishonchini oshiradi	Kapital jalb qilish imkoniyati kengayadi

1 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



Moliyaviy barqarorlik	Aksiya narxining o'sishiga xizmat qiladi	Dividend to'lovlarini kafolatlaydi	Emission daromad hajmi ortadi
Raqamli ochiqlik	Investorlar uchun real vaqt tahlilini ta'minlaydi	Risklarni baholashni osonlashtiradi	Bozor bahosi adolatli shakllanadi
Fond bozori likvidligi	Aksiyalarni erkin sotish imkonini beradi	Investorlar uchun chiqish imkoniyatini yaratadi	Aksiyalar bozordagi talabi ortadi

Oddiy va imtiyozli aksiyalarning investitsion jozibadorligini oshirish tijorat banklari uchun uchta muhim natijani yuzaga keltiradi.

Birinchidan, bank aksiyalarini yuqori bahoda joylashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu emission daromad hajmini oshiradi.

Ikkinchidan, emission daromad regulyativ kapital tarkibida qo'shimcha moliyaviy manba sifatida shakllanadi. Natijada bankning kapital yetariligi va moliyaviy mustahkamligi kuchayadi.

Uchinchidan, aksiyalar jozibadorligi investorlar doirasini kengaytiradi. Bu bankning bozordagi obro'sini oshiradi hamda kapital bozorida faol ishtirok etish imkonini beradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida investorlar bank aksiyalarini baholashda moliyaviy hisobotlar, dividend siyosati, reytinglar, risk indikatorlari va aksiyalar likvidligi haqidagi ma'lumotlarni onlayn tarzda kuzatadi. Shu bois bank aksiyalarining investitsion jozibadorligi nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarga, balki raqamli axborot ochiqligiga ham bog'liq.

Kredit konsentratsiyasi tijorat banklari uchun eng muhim risklardan biridir. Agar bank kredit portfelining katta qismini bitta qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga yo'naltirsa, ushbu qarzdorning moliyaviy holati yomonlashganda, bank kapitali va likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, garov predmeti bilan ta'minlangan jami kreditlar tarkibida bitta qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga ajratilgan kreditlarning ulushi 20 foizdan oshmasligi prinsipi asosiy cheklov sifatida belgilanishi taklif etiladi (2-jadval).

2-jadval

Kredit konsentratsiyasi riskini boshqarish mexanizmi²

Ko'rsatkich	Tavsiya etilgan limit	Iqtisodiy mazmuni	Kutilayotgan natija
Bitta qarzdorga ajratilgan kredit ulushi	20% dan oshmasligi	Bank portfelining bitta mijozga bog'lanishini kamaytiradi	Kredit riski diversifikatsiyalanadi
Aloqador qarzdorlar guruhi ulushi	20% dan oshmasligi	Yashirin konsentratsiya xavfini cheklaydi	Bank kapitali himoyalanaadi
Garov qiymatini baholash	Doimiy monitoring	Garov qiymatining pasayishi nazorat qilinadi	Muammoli kreditlar xavfi kamayadi
Raqamli risk monitoringi	Real vaqt nazorati	Qarzdor holatidagi o'zgarishlar tez aniqlanadi	Erta ogohlantirish tizimi ishlaydi
Portfel diversifikatsiyasi	Tarmoqlar va mijozlar bo'yicha taqsimlash	Kreditlar bir sektorda jamlanib qolmaydi	Barqaror daromad shakllanadi

20 foizlik limit bank kredit portfelining haddan tashqari konsentratsiyalashuvining oldini oladi. Bunday cheklov bank kapitalining bir nechta yirik qarzdor riskiga bog'lanib qolish ehtimolini kamaytiradi.

Mazkur mexanizm quyidagi natijalarni beradi:

Kredit portfeli diversifikatsiyalanadi.

Bitta yirik qarzdor bilan bog'liq yo'qotish xavfi kamayadi.

Garov bilan ta'minlangan kreditlar sifati yaxshilanadi.

Bank kapitali xavfsizligi mustahkamlanadi.

Investorlar uchun bank risk-profilini barqaror ko'rinishga ega bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar kredit konsentratsiyasi riskini boshqarishda alohida ahamiyatga ega. Banklar soliq ma'lumotlari, kredit byurolari, elektron garov reyestrlari, ichki bank ma'lumotlari va aloqador shaxslar bazalarini integratsiya qilish orqali yashirin aloqador qarzdorlarni aniqlashi mumkin.

Xorijiy investorlar ishtiroki tijorat banklari uchun moliyaviy resurslar, xalqaro tajriba, korporativ boshqaruv va valyuta likvidligini kengaytiruvchi muhim omildir. Bank aksiyalarining ma'lum qismini xorijiy investorlarga

2 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

sotish ularning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasini jadallashtiradi.

Tijorat banklari oddiy aksiyalarining kamida 15 foizini va imtiyozli aksiyalarining kamida 10 foiz ulushini xorijiy investorlarga sotish orqali ularning xorijiy valyutalarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash taklif etiladi. Bu orqali banklarning xorijiy valyutadagi resurs bazasi kengayadi, xalqaro moliyaviy hamkorlik imkoniyatlari oshadi va korporativ boshqaruv sifati yaxshilanadi (3-jadval).

3-jadval

Xorijiy investorlar ishtirokining bank investitsion jozibadorligiga ta'siri³

Yo'nalish	Taklif etilayotgan chora	Bank uchun natija	Investor uchun natija
Oddiy aksiyalar	Kamida 15% xorijiy investorlarga sotish	Strategik kapital jalb qilinadi	Boshqaruvda ishtirok imkoniyati yaratiladi
Imtiyozli aksiyalar	Kamida 10% xorijiy investorlarga sotish	Barqaror dividendga yo'naltirilgan kapital kiradi	Nisbatan past riskli investitsiya instrumenti shakllanadi
Valyuta resurslari	Xorijiy kapital oqimini kengaytirish	Xorijiy valyutadagi resurs bazasi ortadi	Kapital diversifikatsiyasi ta'minlanadi
Korporativ boshqaruv	Xalqaro standartlarni joriy etish	Shaffoflik va hisobdorlik kuchayadi	Investor huquqlari himoyasi oshadi
Raqamli investor portali	Ingliz tilidagi ochiq hisobotlar	Xalqaro investorlar uchun axborot ochiqligi oshadi	Qaror qabul qilish xarajatlari kamayadi

Xorijiy investorlar ishtirokining kengayishi banklarga bir nechta strategik ustunlik beradi.


Birinchidan, xorijiy valyutadagi kapital oqimi banklarning xalqaro hisob-kitoblar, import-eksport operatsiyalari va valyuta kreditlarini moliyalashtirish salohiyatini oshiradi.

Ikkinchidan, xorijiy investorlar ishtiroki korporativ boshqaruv, ichki audit, kompayens, risk-menejment va moliyaviy hisobotlar sifatiga bo'lgan talabni kuchaytiradi.

Uchinchidan, xorijiy investorlar bank aksiyalariga talabni oshiradi. Bu esa aksiyalar likvidligini, emission daromadni va bankning umumiy bozor qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, xorijiy investorlar ishtiroki xalqaro reyting agentliklari, institutsional investorlar va moliyaviy hamkorlar oldida bank ishonchligini kuchaytiradi.

Shu sababli oddiy aksiyalarning kamida 15 foizini va imtiyozli aksiyalarning kamida 10 foizini xorijiy investorlarga sotish tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishda amaliy jihatdan asoslangan mexanizm hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Aksiyadorlik kapitali, kredit riski va xorijiy investorlar orqali investitsion jozibadorlikni oshirish

3 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



modeli⁴

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishda aksiyadorlik kapitali, kredit risklari va xorijiy investorlar ishtiroki o'zaro bog'liq tizim sifatida qaralishi lozim. Aksiyalar jozibadorligi bankning kapital bozorida resurs jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi. Kredit konsentratsiyasini cheklash esa bank kapitalining xavfsizligini ta'minlaydi. Xorijiy investorlar ishtiroki bank faoliyatida xalqaro standartlar va ochiqlikni kuchaytiradi.

Oddiy va imtiyozli aksiyalarni investitsion jozibador qilish bank kapitalini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Bank aksiyalarining yuqori narxda joylashtirilishi emission daromadni oshiradi va regulyativ kapital tarkibida barqaror moliyaviy manba shakllantiradi. Bu bankning moliyaviy mustahkamligini oshirish bilan birga investorlar ishonchini ham kuchaytiradi.

Kredit konsentratsiyasi riskini 20 foizlik limit orqali cheklash bank portfelini diversifikatsiyalashga xizmat qiladi. Bitta qarzdor yoki aloqador qarzdorlar guruhiga haddan tashqari ko'p kredit ajratilishi bank kapitali va likvidligi uchun xavf tug'diradi. Shu sababli taklif etilgan limit bank kredit portfeli sifatini oshirish va risklarni kamaytirishning muhim vositasi sifatida baholanadi.

Xorijiy investorlar ishtiroki bankning xalqaro moliya bozorlaridagi mavqeini mustahkamlaydi. Xorijiy kapital banklarga valyuta resurslari, xalqaro boshqaruv tajribasi va investorlar ishonchini olib kiradi. Raqamli transformatsiya esa xorijiy investorlar bilan masofaviy aloqalar, onlayn due diligence, raqamli hisobotlar va ochiq investor portallarini rivojlantirishga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi.

Birinchi, oddiy va imtiyozli aksiyalarning investitsion jozibadorligini oshirish tijorat banklarining emission daromadini ko'paytiradi. Emission daromad regulyativ kapital tarkibida muhim manba bo'lib, bank kapital bazasining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi, bank aksiyalarining investitsion jozibadorligi dividend siyosati, korporativ boshqaruv sifati, moliyaviy barqarorlik, raqamli axborot ochiqligi va fond bozori likvidligi bilan belgilanadi.

Uchinchi, garov predmeti bilan ta'minlangan kreditlar tarkibida bitta qarzdor yoki aloqador qarzdorlar guruhiga ajratilgan kreditlar ulushini 20 foizdan oshirmaslik bank kredit portfelida konsentratsiya riskini kamaytiradi.

To'rtinchi, kredit konsentratsiyasini cheklash kredit resurslarining xavfsiz aylanishi, bank kapitalining himoyalaniishi va investorlar uchun bank risk-profilining barqarorlashishiga olib keladi.

Beshinchi, tijorat banklari oddiy aksiyalarining kamida 15 foizini va imtiyozli aksiyalarining kamida 10 foizini xorijiy investorlarga sotish banklarning xorijiy valyutadagi resurs bazasini kengaytiradi hamda xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlarini oshiradi.

Oltinchi, xorijiy investorlar ishtiroki korporativ boshqaruv, shaffoflik, xalqaro audit, risk-menejment va komplayens tizimlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, aksiyadorlik kapitalining jozibadorligi, kredit konsentratsiyasi riskini cheklash va xorijiy investorlar ishtirokini kengaytirish tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishning o'zaro bog'liq va kompleks mexanizmlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rose P. S., Hudgins S. C. Bank Management and Financial Services. — 9th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2013. — 736 p.
2. Saunders A., Cornett M. M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. — 9th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2018. — 912 p.
3. Altman E. I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // The Journal of Finance. — 1968. — Vol. 23, № 4. — P. 589–609.
4. Levine R. Finance and Growth: Theory and Evidence // Handbook of Economic Growth. — 2005. — Vol. 1A. — P. 865–934.
5. Abdullayeva Sh. Z. Bank ishi. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. — 732 b.
6. O'Imasov A., Vahobov A. V. Iqtisodiyot nazariyasi. — Toshkent: Sharq, 2006. — 480 b.
7. Malikov T. S., Haydarov N. H. Davlat moliyasi. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007. — 456 b.
8. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms. — Basel: Bank for International Settlements, 2017. — URL: [bis.org](https://www.bis.org)
9. International Monetary Fund. Uzbekistan: Staff Concluding Statement of the 2026 Article IV Mission. — Washington: IMF, 2026. — URL: [imf.org](https://www.imf.org)
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Monetary Policy Guidelines for 2026–2028. — Toshkent: CBU, 2025. — URL: [cbu.uz](https://www.cbu.uz)

4 Muallif ishlanmasi.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100